“RAQOBAT TO'G'RISIDA”GI QONUN YANGI TAHRIRDA QABUL QILINDI



Qonun bilan raqobat sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari belgilandi.



Qonunga ko‘ra, Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi raqobat sohasidagi vakolatli davlat organi (monopoliyaga qarshi organ) hisoblanadi.



Qonunga bir qator yangi, jumladan, monopoliyaga qarshi komplaens tushunchasi kiritildi.

Monopoliyaga qarshi komplaens faoliyatning raqobat to'g'risidagi qonunchilik talablariga muvofiqligini ta'minlash, ularning buzilishi xatarlarini aniqlash va mazkur xatarlarning oldini olish bo'yicha ichki tashkiliy tartib-taomillar tizimidan iborat.

Monopoliyaga qarshi komplaens majburiy tartibda:

1. respublika **ijro etuvchi hokimiyat organlari** va boshqa tashkilotlarda;
2. tovar yoki **moliya bozorida ustun mavqega ega** bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarda;
3. oxirgi **3 yilda** tovarlarni realizatsiya qilishdan olingan tushumining o‘rtacha yillik miqdori **BHMning 100 ming** baravaridan oshadigan hamda ustav fondining *(ustav kapitalining)* **50 foizi** va undan ortig‘i davlatga tegishli bo‘lgan yuridik shaxslarda;
4. oxirgi **3 yilda** tovarlarni realizatsiya qilishdan olingan tushumining o‘rtacha yillik miqdori **BHMning 100 ming** baravaridan oshadigan hamda ustav fondining (ustav kapitalining) **50 foizi** va undan ortig‘i ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) davlat ulushi **50 foizni** va undan ortiqni tashkil etadigan yuridik shaxsga tegishli bo‘lgan **yuridik shaxslar**da;
5. yuridik shaxslarning **birlashmalarida** joriy etiladi.



Qonunda ustun mavqeni belgilashning yangi mezonlari kiritildi.



Unga ko‘ra, tabiiy monopoliya subyektlari ham ustun mavqega ega subyektlar qatoriga qo‘shildi.

Manba: O‘RQ–850-son, 03.07.2023-y.